

## XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA BIOLOGIYA TERMINLARNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**G'apporova Bahora Karimjon qizi**

*TKTI Oziq-ovqat va vinochilik fakulteti*

*parfyumeriya- kosmetika mahsulotlari*

*ishlab chiqarish texnologiyasi va muhandisligi yo'nalishi*

*1- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada termin tushunchasi, o'zbek va xitoy tillarida biologic terminlarning shakllanish tarixi hamda rivojlanish bosqichlari chog'ishtirma tarda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida o'zbek va xitoy tillarida biologiya terminologiyasining ilk bosqichlaridan boshlab hozirgacha bo'lgan davrni tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi xitoy va o'zbek tillarida biologiya sohasi terminologiyasining shakllanishini chog'ishtirma tahlil qilish. Olingan natijalar qiyosiy terminologiya hamda etimologiya sohasida bilimlarning boyishiga xizmat qiladi. Tadqiqot mobaynida qiyosiy-tipologik, etimologik, va tarixiy-xronologik yondashuv metodlaridan foydalaniladi.

**Kalit so'zlar va so'z birikmalari:** Termin, terminologiya, qadimgi yozma manbalar, O'rxun-Enasoy, Konfutsiy, Zhenming, Li Shizhen, CNCTST, shengxujia, rivojlanish bosqichi, standartlashtirish.

**Abstract:** This article analyzes the concept of the term, the history of the formation and stages of development of biological terms in the Uzbek and Chinese languages in a comparative manner. The research will analyze the period from the early stages of biological terminology in Uzbek and Chinese to the present. The purpose of the study is to analyze the formation of biological terminology in the Chinese and Uzbek languages in a comparative manner. The results obtained serve to enrich knowledge in the field of comparative terminology and etymology. The methods of comparative-typological, etymological, and historical-chronological approaches are used during the research.

**Keywords and word combinations:** Term, terminology, ancient written sources, Orkhun-Enasoy, Confucius, Zhenming, Li Shizhen, CNCTST, shengxujia, development stage, standardization.

Barcha tillarda terminologiya shakllanib rivojlanishi, albatta, jamiyat taraqqiyoti ilmfan madaniyat rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Jahon tilshunosligida terminologiya eng harakatchan va muntazam boyib boruvchi, turli faoliyat sohaslariga yangi ma'nolar, ta'riflar va muqobillarning katta miqdorda singishiga olib keluvchi qatlami sifatida e'tirof etiladi.<sup>68</sup> O'zbek va xitoy terminologiyalari tarixiy jihatdan bir nechta bosqichlarni bosib o'tadi. Turkiy xalqlarda xususan, o'zbeklar orasida ham yozuv shaklanmasdanda oldin xalq

<sup>68</sup> Sultanova L. Становление традиционной медицинской терминологии в Китае // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №3.2022.-B.111.

og'izaki ijodlari va kundalik turmushlarda biologik tushunchalardan unumli foydalanishgan . Xitoy tilshunosligida termin o'ziga xos yozuv tizimi iyerogliflarga ega tufayli dunyo tilshunosligida alohida o'rin tutadi. Xitoy terminologiyasida miloddan avvalgi davrlardayoq Konfutsiyning Zhengming 正名 (nomlarni tog'irlash) ta'limotidan boshlangan. Ta'limotga ko'ra, har bir narsaning nomi uning mohiyatiga mos kelishi shart.

O'zbek va xitoy tillari boshqa til oilalariga mansub ekanligiga qaramay, ularning har ikkisida ham soha tushunchalarning ifodalashning boy milliy o'ziga xosligi mavjud. Xitoy tilida esa biologik terminlar iyerogliflarning qadimiy piktografik, semantik o'ziga xosligiga ko'ra shakllanib brogan. Ushbu maqolada har ikki tildagi soha terminlarning shakllanish jihatidan o'ziga xos va rivojlanish jihatidan mantiqiy bosqichlari tahlil qilinadi.

Biologiya soha terminlari hali fan mavjud bo'lmasdanda oldin, hayotiy ehtiyojlar tufayli yuzaga kelgan dastlabki atamalardan hisoblanadi. Masalan, turkiy xalqlar xususan, xalqimiz qadimdan chorvachilik, ovchilik hamda tabobat bilan shug'ullanganligi uchun hayvonot va o'simliklarga oid atamalar juda aniq tasvirlangan. Buni xalq og'izaki ijodi namunalarida yaqqol kuzatish mumkin. Bundan tashqari, milodiy VII-VIII asrlarda O'rxun-Enasoy yodgorliklarida hayvonot olami, o'simliklar dunyosi, inson ta'na a'zolarini anglatuvchi so'zlari mavjud bo'lgan. Masalan: adg'ir (ot), bash (bosh), sunguk (suyak), tiz (tizz) kabi.

Xitoy iyerogliflari qadimdan piktografik tabiatidan kelib chiqib yasalgan. Masalan: 木 (mu)daraxt, 艹 (cao) o't kabi. Xitoy iyerogliflarning etimologik asosi bo'lgan jiaguwen (toshbaqa va suyaklardagi yozuvlar)biologik tushunchalarni vizual identifikatsiya qilishning ilk ilmiy-emperik shaklidir.<sup>69</sup> Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, narsalarning nomi tog'ri bo'lmasa, jamiyatda tartib bo'lmaydi yo'sinida Zhengming (tog'ri ismlar)ni ixtiro qildi. Konfutsiyning "Zhengming" konsepsiyasi xitoy ilm- fanida terminologik aniqlikning asosi bo'lib xizmat qiladi.<sup>70</sup>

Keyingi davrlarga kelib o'zbek tili terminologiyasi ilmiy tushunchalarni ifodalashda asosan arab va fors tillaridan kirib kelgan so'zlardan, atamalardan foydalanishgan. Bu holat ayniqsa o'rta asr ilmiy adabiyotlarida yorqin ko'zga tashlanadi.<sup>71</sup>O'zbek, turkiy tillar biologik atamaları XI asrda Mahmud Qo'shg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asarida sof turkiy qatlamdagi so'zlarni uchratish mumkin.Asarda 400 ga yaqin zoonim, 100 dan ortiq qush va o'simlik nomlari hamda anatomik atamalar ham izohlangan. Masalan: uzun (uzum),isriq (isiriq), em (dori), yarpak (yaproq) , o'pka singari. Mahmud Qoshg'ariy bu atamalarni shunchaki sanab o'tmay, ularning etimologiyasi, qaysi qabilalar tomonidan qanday talaffuz qilinishi va xalq hayotidagi o'rni haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Qoshg'ariy asaridagi fauna va flora leksikasi XI asrdagi turkiy xalqlarning tabiat haqidagi tizimli bilimlarini aks ettiruvchi yagona lingvistik manbadir.<sup>72</sup> Bundan tashqari Ibn Sinoning "Al-Qonun fit tib" asari garchi arab tilida yozilgan bo'lsada, Ibn Sino qo'llagan ko'plab arabcha terminlar

<sup>69</sup> 叶赖士 Yelaishi. 术语学概论 (Terminologiya asoslari).-Shanxay.:Sishu,1982.-B.143.

<sup>70</sup> Fung Yu-Lan. "A Short History of Chinese Philosophy".- Shanxay.:Hebei,1989.

<sup>71</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.:O'zbekiston,2019.-B.235.

<sup>72</sup> Mutallibov.S.Devonu lug'atit turk tarjiması so'z boshidan.

keyinchalik eski o'zbek tiliga o'tgan hamda asrlar mobaynida xalq tabobati va ilm fan uchun faol qo'llanilgan. Masalan; mijoz, asab, tomir, kabi atamalar o'sha davr asarlarida ham arabcha ham o'zbekcha muqobillari yonma- yon ishlatilgan. Xitoy tilida o'rta davrlarning terminologiya sohasining yaqqol namunasi bo'lgan asar Li Shizhenning 李时珍 ning "Bencao Gangmu" (本草纲目) "dorivor gilyohlar to'plami" asaridir. Bu asar xitoy nomenkulturasining cho'qqisi hisoblanadi. Li Shizhenning "Bencao gangmu" asari nafaqat farmasevtika, balki xitoy tilidagi biologik nomenkulturaning standartlashtirgan birinchi yirik manba hisoblanadi.<sup>73</sup> Li Shizhen o'simliklarning yashash muhitiga ko'ra 5 ta guruhga bo'ladi. Ko'p dorivor o'simliklar nomida cao (o't) iyeroglifi borligiga ishora qiladi.

Mezonlari	Devonu lug'atit turk	Bencao Gangmu 本草纲目
Asosiy yo'nalishi	Fiologik-etimologik ensklopidiya	Tibbiy-biologik ensklopediya
Tasnifi	Hayvonlar jinsi, turi	Yashash muhiti va xususiyati
Termin xarakteri	Sof turkiy,xalqona nomlari	Iyerogliflarning ma'no tarkibi
Biologik qatlami	Zoologiya, botanika	Shifobaxsh xususiyatlilar

Zamonaviy

davrga kelib, O'zbekistonda terminologiya fani XX asr boshlarida ya'ni 1920-yildagi Fitrat hamda "Chig'atoy gurungi"da ilmiy harakatlar bilan boshlangan. O'zbek terminologiyasining milliy asoslarini yaratish va takomillashtirishda 1921-yildagi Toshkent va 1924-yildagi Buxoro terminologiya qurultoylari poydevor vazifasini o'tagan.<sup>74</sup> O'zbekistonda zamonaviy biologiya terminlari asosan XX asrning birinchi yarmida rus tili vositachiligida shakllangan. O'zbek tili agglyunativ til bo'lgani uchun, biologik terminlar ko'pincha yasama so'zlar hamda so'z birikmalari orqali ifodalanilgan. Biologik terminlarni yasashda xalqaro terminlarni qabul qilish yoki milliy muqobillarini topish yo'nalishlarini kuzatish mumkin. Masalan, xalqaro terminlarni qabul qilgan terminlarga genitika, sitologiya, adaptatsiya kabi atamalar misol bo'lsa, hujayra, moddalar almashinuvi kabi terminlar misol bo'la oladi. O'zbekistonda terminologiya ko'proq "fan tili" va "milliy til" uyg'unligini saqlashga urg'u beradi. Atamalar tuzilishida Atamalar komissiyasi va fablar akademiyasi instutlari asosiy tayanch nuqtalaridir.

Xitoy terminologiyasi davlat xavfsizligi va fan intergratsiyasi darajasidagi masaladir. CNCTST (China National Committee for Terminology in Science and Technology) tashkiloti 1985-yilda tashkil etilgan bo'lib, xitoy tilidagi barcha ilmiy terminlarni tasdiqlovchi yagona organdir. Ular "bir tushuncha – bir termin" tamoyiliga amal qilishadi. Xitoyda ilmiy terminologiyani unifikatsiya qilish jarayoni CNCTST tomonidan bosqarilib, u biologik nomenkulturaning xalqaro standartlar va milliy til an'analari o'rtasidagi muvozanatni

<sup>73</sup> Joseph Needham. Science and Civilisation in China.

<sup>74</sup> Jamolxonov.H. O'zbek tili terminologiyasi

ta'minlaydi. <sup>75</sup> Xitoy terminshunosligi Vyuster asos slogan Vena terminologiya maktabi nazariyalarini o'ziga xos tarzda iyerogliflar tizimiga moslashtirgan. Xitoy tili g'arb terminlarini o'zlashtirishda ularning tovushini emas, ko'proq ma'nosini iyerogliflarga o'giradi. Misol uchun, genetika – 遗传学(yichuan xue)so'zma so'z tarjima qilganda, “meros qolish haqidagi ta'limot” ma'nosini ifodalaydi, fotosentiz – 光合作用 (guanghe zuoyong) “nur yordamida birlashish jarayoni ” ma'nosini bildiradi. Xitoy tilidagi zamonaviy birliklarning deyarli 90% qismi semantic kalkalash asosida yaratilgan bo'lib, bu fanning xalq ommasiga tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.<sup>76</sup>

Xususiyat	O'zbek tili (zamonaviy)	Xitoy tili (zamonaviy)
Asosiy manba	Lotin/ yunon	Lotin (iyerogliflar tarjima qilingan )
Usul	Transliteratsiya	Semantik kalkalash
Standartlash	Davlat tili haqidagi qonun va lug'atlar	Milliy terminologiya qo'mitasi CNCTST

Xulosa qilib aytish mumkinki, har ikki tilning biologik leksikasi qadimgi davrlardayoq xalqlarning yashash tarzi asosida shakllangan. Dastlabki davrda o'zbek tilida soha terminlari ko'proq og'izaki manbalarda saqlangan bo'lsa, keyinchalik O'rxun-Enasoy hamda “Devonu lug'atit turk” kabi manbalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Xitoy tilida esa iyerogliflarning piktografik shakli hamda Konfutsiyning “Zhengming” falsafasi biologiya terminlari uchun o'ta ahamiyatlidir. O'rta asrlarga kelib, ya'ni XI-XVI asr oraliqlarida har ikki til madaniyatida biologik bilimlar ensklopediyalari yaratilgan. Xususan, Mahmud Qoshg'ariy turkiy tillarning flora hamda fauna dunyosini so'z boyligini tartibga slogan bo'lsa, Li Shizhen xitoy tabobatidagi minglab o'simlik va hayvon terminlarini klassifikatsiya qilgan. Bu davrda terminlar emperik usulga ega bo'lib, insoniyatning leksik ehtiyojlarini qondirgan. Bugungi kunga kelib, har ikki til ilm-fan glaballashuviga yuz tutmoqda. O'zbek terminologiyasida ko'proq xalqaro terminlarni qabul qilish bilan yoki milliy muqobil variantlarni yaratish bilan shug'ullanayotganda, xitoy terminologiyasi institutsional nazoratda xalqaro iyerogliflarni semantik kalkalash orqali o'z terminologiyasini boyityapti.

Demak, o'zbek hamda xitoy biologiya soha terminologiyasi mutloqo boshqa til oilalariga mansubligiga qaramasdan, ularning mantiqiy o'xshashliklarini payqash mumkin.

<sup>75</sup> Liang Qi. Terminology Standardization in China.

<sup>76</sup> Pan Shiqin. Brief history pf Chinese Scientific Terminology.



## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'atit turk". (Ushbu asarning S. Mutallibov yoki G'. Abdurahmonov tomonidan tayyorlangan nashrlari).
2. Jamolxonov H. "O'zbek tili terminologiyasi". – Toshkent, 2011. (O'zbek terminologiyasining nazariy asoslari uchun asosiy manba).
3. Abdurahmonov G'., Rustamov A. "Qadimgi turkiy til". – Toshkent, 1982.
4. Madvaliyev A. "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari". – Toshkent, 2017.
5. Sultanova L. Становление традиционной медицинской терминологии в Китае//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №3.2022
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.:O'zbekiston,2019.-B.235
7. Li Shizhen. "Bencao Gangmu" (Compendium of Materia Medica). (Xitoy biologik terminologiyasining tarixiy asosi).
8. Needham, J. "Science and Civilisation in China". Volume 6: Biology and Biological Technology. (Xitoy fan tarixi bo'yicha eng nufuzli g'arb manbasi).
9. Pan Shiqin. "A Brief History of Chinese Scientific Terminology".
10. Fung Yu-lan. "A Short History of Chinese Philosophy". (Konfutsiyning "Zhengming" - nomlarni to'g'rilash ta'limoti uchun).
11. Wüster, E. "Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography". (Vena terminologiya maktabi asoschisi).
12. Sager, J.C. "A Practical Course in Terminology Processing".